

## HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR TIZIMIDA YURIDIK TA'MINLASH BO'LINMALAR FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI, FAOLIYATI VA YURIDIK XIZMAT MOHIYATI

*Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti  
Abdumuxtorov Dilmurod Elmurod o'g'li  
Ilmiy rahbar – Aliyev Avazbek Ulug'bek o'g'li  
IIV Akademiyasi Axborot texnologiyalari  
kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimizda kuchli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati va ularning faoliyatini yuridik ta'minlash haqida boradi.

**Kalit so'zlar:** yuridik ta'minlash, yuridik xizmat, huquqlar, erkinliklar, huquq va majburiyat, vakolat, yuridik ta'minlash faoliyati

### ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ В СИСТЕМЕ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ, ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ХАРАКТЕР ЮРИДИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ

**Аннотация:** В данной статье речь идет о деятельности правоохранительных органов и правовом обеспечении их деятельности по становлению в нашей стране сильного правового государства, повышению правосознания и культуры граждан, обеспечению законности в деятельности органов государственной власти и управления. органов и хозяйствующих субъектов.

**Ключевые слова:** правовое обеспечение, юридическая услуга, права, свободы, права и обязанности, полномочия, правовое обеспечение деятельности

### CHARACTERISTICS OF ACTIVITY OF LAW ENFORCEMENT DEPARTMENTS IN THE SYSTEM OF LAW ENFORCEMENT BODIES, ACTIVITY AND NATURE OF LEGAL SERVICE

**Annotation:** This article is about the activity of law enforcement agencies and legal support of their activities in the establishment of a strong legal state in our

country, raising the legal consciousness and culture of citizens, ensuring the rule of law in the activities of state power and management bodies and economic entities.

**Key words:** legal provision, legal service, rights, freedoms, rights and obligations, authority, legal provision activities

Bugungi kunda yuridik xizmatning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi oʻrni tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlikka keng sharoit yaratib berilayotganligi bois yildan-yilga xoʻjalik yurituvchi subʻyektlar soni koʻpayib, yuridik xizmat faoliyat koʻrsatadigan obʻyektlar qamrovi ham ortib bormoqda. Bu esa yuridik xizmat sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishni hamda ularni turli hayotiy va ishlab chiqarish holatlarida huquqiy vositalardan toʻgʻri foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Shuning yuriskonsult sifatida oʻz mehnat faoliyatini boshlamoqchi boʻlgan mutaxassislar dastlab koʻplab qiyinchiliklar va toʻsiqlarga uchraydilar. Ularni bartaraf etishga esa har doim ham bilim va tajribalari yetishmaydi.

**Yurist** - yuridik maʼlumotga ega boʻlgan, yuridik bilimli, qonunchilikni biluvchi, ularni amaliy faoliyatda qoʻllash koʻnikmasiga ega boʻlgan shaxs

Yurist kasbi sivilizatsiya tarixida eng qadimiy kasblardan biri hisoblanib, u huquq bilan birga paydo boʻlgan hamda uning roli qonunchilikning rivojlanishi, jamiyat hayotining huquqiy tartibga solish ahamiyati kuchayishi bilan oshib borgan. Huquqni bilish va uni qoʻllay bilish davlatning koʻp funksiyalarini amalga oshirish uchun muhim shartga aylandi.

Birinchidan, yurist kasbining muhim ijtimoiy roli mavjud boʻlib, ular shaxs manfaatlari, huquqlari, erkinliklari, mulki, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qiladilar. Shuningdek, ular adolat, insonparvarlik, qonuniylik, huquq tartibot uchun kurash olib boradilar. Yuristning ijtimoiy roli ayniqsa yuridik normalarga rioya qilish va bajarishga katta ahamiyat beriladigan huquqiy davlatda kuchayadi.

Ikkinchidan, yuristlar nafaqat huquqni qoʻllashda, balki qonunchilikni rivojlantirishga ham katta hissa qoʻshadilar. Ular qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha takliflar tayyorlaydilar va ularni vakolatli organlarga yuboradilar, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlaydilar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari boʻyicha xulosa va fikrlar beradilar.

Uchinchidan, yurist kasbiga qaysi yoʻnalishda faoliyat yuritilishidan qatʼi nazar quyidagi umumiy xususiyatlar xosdir: insonparvarlik va adolat prinsiplarini chuqur anglab yetish va ularga rioya qilish; davlat hokimiyati organlari faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita bogʻliqlik; psixologik-pedagogik kasbiy mahoratlarga tayanish; ijodiy-tadqiqotchilik; qaror qabul qilishda mustaqillik; tashkilotchilik; rasmiylik.

Mustaqil davlatimizda **yuristlar** sudlarda, prokuratura, ichki ishlar, adliya, soliq, bojxona, milliy xavfsizlik va boshqa davlat organlarida, korxonalar, muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, shu jumladan advokaturada faoliyat yuritmoqdalar.

Yuristlarning faoliyat doirasi faqatgina yuridik mutaxassisliklar bilan cheklanib qolmasdan, balki ilmiy-pedagogik, siyosiy faoliyatda ham faol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, oliy va o‘rta maxsus ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida, parlament palatalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalarida ham yuristlar faoliyat yuritib, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik insonparvar huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarda samarali ishtirok etmoqdalar.

**Yuridik faoliyat** mazmuni, uni qo‘llash sohasi, shakli va uslublari bo‘yicha quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

- a) odil sudlov;
- b) prokuror nazorati;
- v) jinoyatlarni tergov qilish;
- g) fuqarolar va tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatish (advokatlik faoliyati);
- d) notarial harakatlarni amalga oshirish;
- e) davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda huquqiy ishlar kiradi.

Yuridik ishlarning bunday turlarining mavjudligi yuristlarning ixtisoslashuviga olib keladi, chunki busiz u yoki bu turdagi ishlarni malakali va muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati kamayadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan yuridik ishlarga quyidagi yuridik mutaxassisliklar muvofiq keladi: **sudya, prokuror, surishtiruvchi, tergovchi, advokat, notarius, sud ijrochisi, yuriskonsult.**

**Yuriskonsult** – yuridik mutaxassisliklardan biri bo‘lib, u davlat organlari, xo‘jalik boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar)da huquqiy ishlarni amalga oshiruvchi yuridik xizmat xodimi hisoblanadi.

Xalqaro huquq normalarida va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ham yuridik xizmat xodimini nomlanishi yuqoridagi ta’rifga mos keladi. Masalan, BMT Kongressi tomonidan qabul qilingan “Yuristlarning roliga doir asosiy prinsiplar”ida (Gavana, 1990 yil 27 avgust – 7 sentyabr) “yuriskonsult” va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 24 avgustdagi «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta’minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 182-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to‘g‘risida” va “Xo‘jalik

boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati to‘g‘risida”gi nizomlarda ham “yuriskonsult” termini qo‘llanilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligining 2003 yil 22 sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari lavozimlari ro‘yxatida – yuridik bo‘lim yoki boshqa tarkibiy tuzilma boshlig‘i, boshliq o‘rinbosari – rahbar (ma‘muriy-boshqaruv xodimlar) toifasiga kiritilgan bo‘lsa, yuriskonsultlar boshqaruv xodimlari mutaxassisi toifasiga kiritilgan.

Yuridik xizmat xodimlarini ham normativ-huquqiy hujjatlarda, ham yuridik adabiyotlarda bir xil – “yuriskonsult” deb nomlanishi, ularning huquqiy maqomini (vazifasi, huquqi va javobgarligi) aniq belgilanishini, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda yuridik texnika qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlaydi, shuningdek bu kasb egasini nomini davlat tiliga noto‘g‘ri tarjima qilinishini oldini oladi hamda uning boshqa yuridik mutaxassisliklardan (sudya, prokuror, advokat, notarius) farqini aniq aks ettiradi.

A.P. Korneyev yuriskonsult – davlat hokimiyati organlari, korxonalar (konsernlar, birlashmalar), ijtimoiy-madaniy muassasalar, tashkilotlar huquqiy xizmatining yuridik bo‘lim (byuro)si boshlig‘i, bosh (katta) yuriskonsulti, yuriskonsulti lavozimida bo‘lgan xodim, deb ta‘rif beradi.

Yuridik ensiklopedik lug‘atlarda ham yuriskonsult - korxonada, muassasa, tashkilotlar huquqiy xizmati xodimi - deyilgan.

Professor G‘. Abdumajidov korxonada, muassasa, tashkilot o‘zining doimiy huquqshunosiga ega bo‘lgani uning qonuniy nuqtai nazardan faoliyat yuritishida nechog‘lik foydali ekanligini ta‘kidlaydi.

M.Yu. Radchenko nizoli holatlar murakkab bo‘lmasa yoki kam kelib chiqsa korxonada arbitraj (hakamlilik) ishlarini bajara oladigan xodimni ajratish yetarli ekanligini qayd qiladi. Shuningdek u bunday muammolarni hal qilishning maqbul yo‘li korxonada xodimlar soni ko‘p bo‘lmagan yuridik xizmatni tashkil etishdir degan fikrni ilgari suradi. Agar korxonada doimiy ravishda nizo yoki unga yaqin bo‘lgan holatlarga uchrab tursa, yuridik xizmat doirasida yoki hatto mustaqil, faqat arbitraj muammolari bilan shug‘ullanadigan bo‘linma, ya‘ni arbitraj xizmati tashkil qilinishi eng maqbul (ko‘pincha yagona to‘g‘ri) yo‘l degan xulosaga keladi.

M.Yu. Radchenkoning oxirgi xulosasi bilan kelishib bo‘lmaydi, chunki birinchidan, mustaqil arbitraj xizmatining tashkil qilinishi korxonada tarkibiy bo‘linmalarning sonini ko‘payishiga olib keladi; ikkinchidan, u bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar jumlasiga yuridik xizmatning shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta‘minlanishini tashkil etish bo‘yicha vazifalari to‘lig‘icha kiritilgan;

uchinchidan, bunday bo‘linmaning “arbitraj xizmati” deb nomlanishi ham to‘g‘ri emas, sababi bu xizmat faqat xo‘jalik (arbitraj) sudlarida ko‘riladigan ishlarda qatnashish va buning uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni tayyorlash bilan cheklanib qolmasligi kerak, qolaversa bunday nomdagi xizmatni tashkil qilinishi uni nizolarni hal qilishi lozimligini anglatadi.

Korxonalarining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar yuridik xizmat uning eng muhim xizmatlaridan biri hisoblanadi va usiz korxonada samarali faoliyat yuritilmaydi – deb ta‘kidlaydilar S.M. Ayzin va M.Yu. Tixomirov.

Korxonadagi huquqiy ishlar o‘z ichiga korxonada boshqaruv organlari (aksiyadorlar, ishtirokchilar umumiy yig‘ilishi, direktorlar kengashi, bosh direktor va hokazo) tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va boshqa huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlarga viza qo‘yish yo‘li bilan huquqbuzarliklarni oldini olish; bitimlarni rejalashtirishda ishtirok etish, shartnomalar (kontraktlar)ni tayyorlash va viza qo‘yish, talabnoma va da‘vo arizalarini taqdim etish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda vakillik qilish orqali korxonaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek lokal hujjatlarni tizimlash bo‘yicha ishlarni bajarish va mehnat jamoasida huquqiy tarbiya ishlarida ishtirok etish funksiyalarini oladi.

Yuridik xizmatning o‘ziga xosligi shundaki, u korxonada tuzilmasining tarkibiy qismi hisoblanib, xo‘jalik faoliyatini yuritishni, biznesni qonuniy yo‘lga yo‘naltirishni va aynan qonun nuqtai nazaridan korxonaning mulkiy va boshqa manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlashi lozim.

K.K. Lebedevning ta‘kidlashicha, tadbirkorlik sohasida xizmat ko‘rsatayotgan yuristlar korporativ yuristlar deb nomlanmoqda. Iqtisodiyot sohasida yuristning ishi – bu avvalo, tijorat tuzilmalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan notijorat tashkilotlarga huquqiy xizmat ko‘rsatishdan iboratdir.

K.K. Lebedev va V.A. Zlobin “yurist” bilan “yuriskonsult”, atamalariga tenglik alomatini qo‘ygan holda ularni bir xil ma‘noda qo‘llaganlar.

Amaliyotda va ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatlarda va yuridik adabiyotlarda ham yuridik xizmatni – “shartnoma-huquqiy boshqarma”, “yuridik boshqarma”, “huquqiy bo‘lim”, yoki yuriskonsult lavozimini - “yuristkonsult”, “yuristkonsultant”, “yuridik maslahatchi”, “yetakchi nazoratchi yurist”, “yurist”, “yurist maslahatchi”, “yuridik masalalar bo‘yicha bosh mutaxassis”, “huquqiy maslahatchi”, “huquqshunos”, “huquqiy masalalar bo‘yicha rahbar o‘rinbosari (yordamchisi)”, ayrim holatlarda hattoki “adliya maslahatchisi” deb nomlangani yoxud o‘zbek tiliga tarjima qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuridik xizmatni va uning xodimlari lavozimlarini qonunchilikda va amaliyotda bir xilda nomlanishini va tushunilishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olib, quyidagi takliflarni kiritish mumkin: 1) davlat organlari, xo'jalik boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar yuridik xizmati xodimlari sonini hisobga olgan holda belgilangan tartibda "yuridik bosh boshqarma", "yuridik boshqarma", "yuridik bo'lim", "yuridik guruh", "yuridik byuro" deb yuritilishi maqsadga muvofiqdir; 2) yuridik xizmat xodimlarini – tegishlicha "bosh yuriskonsult", "yetakchi yuriskonsult", "katta yuriskonsult", "yuriskonsult" deb nomlash to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz.

**Yuridik xizmat** deganda davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda (korxonalar, muassasa va tashkilotlarda) huquqiy ishlarni amalga oshirilishini ta'minlaydigan, tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lgan tarkibiy bo'linma (bosh yuridik boshqarma, yuridik boshqarma, yuridik bo'lim, yuridik guruh, yuridik byuro va hakoza.) yoki mutaxassis (bosh yuriskonsult, yetakchi yuriskonsult, katta yuriskonsult yoki yuriskonsult) tushuniladi.

Yuridik xizmat tushunchasida ham **faoliyat yo'nalishiga**, ham faoliyatni amalga oshiruvchi **tuzilmaga** – **sub'yektga** alohida urg'u berilgan. Agar ular bir-biridan ajratilsa, yuridik xizmat o'z mohiyatini yo'qotadi, boshqa tuzilmalar va faoliyatlarga aralashib ketadi. Yuridik xizmat huquqiy maydonda mustaqil tuzilma va faoliyat yo'nalishi sifatida mavjud bo'lishi ob'yektiv zaruratga ega. Ushbu ob'yektiv zarurat quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, kishilik jamiyati shunday bosqichga yetdiki, bunday bosqichda huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi roli barqaror va muhim bo'lib qoldi. Kelgusida huquqiy va nohuquqiy tartibga solish o'rtasidagi nisbat doimiy bo'lib, huquqiy omillar zaiflashmaydi. Ushbu holat har qanday faoliyatni huquqiy maydonda va huquqiy omillar ta'sirida amalga oshirilishni taqozo etadi;

ikkinchidan, har bir faoliyat sohasidagi huquqiy ishlar yuridik malaka asosida tashkil etilishi lozim. Shu sababli ham muayyan kasb egasi bo'lgan shaxslar huquqiy jihatdan qanchalik savodxon bo'lmasin, baribir ixtisoslashgan yuridik xizmatga muhtoj bo'ladi;

uchinchidan, ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari nihoyatda tezlashgan hozirgi davrda (bunga axborot-telekommunikatsiyalar rivoji katta turtki berdi) ijtimoiy munosabatlar zamirida har bir sub'yektning manfaati, maqsadi yotadi. Manfaatlar har doim mos kelmasligi bahsli, munozarali, nizoli masalalarni keltirib chiqaradi. Ularni bartaraf etish, yumshatish maqsadida barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar yuridik xizmatga muhtoj bo'ladilar.

Yuqoridagi omillar har bir davlat organida, har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektida yuridik xizmat huquqiy ishlarni amalga oshirilishini ta'minlovchi alohida, mustaqil

tuzilma sifatida mavjud bo'lishini taqozo etadi. Busiz huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati va bozor tizimi normal faoliyat ko'rsata olmaydi.

Yuridik xizmatning jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishdagi o'ziga xos o'рни va ahamiyatini yana bir bor ta'kidlab o'tish joizdir. Zero, yuridik xizmati yordamida, birinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda huquqiy ishlar sifati va samaradorligini oshirish hamda qonun ustuvorligini amalda ta'minlash;

ikkinchidan, xo'jalik yuritish va boshqaruvning kundalik faoliyatida huquq normalaridan amalda foydalanishni yaxshilash;

uchinchidan, jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarni amaliyotga tatbiq qilishni ta'minlovchi mexanizmni ishlab chiqish;

, har qanday qonun buzilishlar va jinoyatlarning (ayniqsa, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning) oldini olish;

beshinchidan, mansabdor shaxslar va barcha toifadagi mutaxassislarning huquqiy madaniyatini ko'tarish; va nihoyat, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va ularning xodimlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. <https://iiv.uz/> Vazirlik sohasidagi siyosiy yangiliklar
5. [https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/yuridik\\_hizmat](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/yuridik_hizmat)
6. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)